



IJTIMOIIY TASAVVUR FENOMENING O'RTA OSIYO MUTAFAKKIRLARI ASARLARIDA O'RGANILISHI

Sayfutdinov Amin Izzatovich

Osiyo Xalqaro Universiteti magistranti

Ilmiy Rahbar: O.R.Avezov- Ps.f.f.d., dotsent

Annotatsiya: *Maqolada O'rta Osiyo mutafakkirlarining asarlari asosida o'smirlardagi ijtimoiy tasavvurlarni shakllanishiga xizmat qiluvchi ijtimoiy-psixologik omillar aniqlandi, O'rta Osiyo mutafakkirlarining asarlari asosida o'smirlardagi ijtimoiy tasavvurlarni shakllanishini ta'minlovchi shaxs tiplari va shaxs xususiyatlari o'rtasidagi bog'liqlik ko'rib chiqildi.*

Kalit so'zlar: *ijtimoiylashuv, fenomen, mutafakkir, asar, ijtimoiy-psixologik omillar.*

Аннотация: *В статье на основе трудов среднеазиатских мыслителей определены социально-психологические факторы, которые служат формированию социального воображения у подростков, установлена связь между типами личности и личностными характеристиками, обеспечивающими формирование социального воображения у подростков на основе рассматривалась лицензия произведений мыслителей Средней Азии.*

Ключевые слова: *социализация, явление, мыслитель, труд, социально-психологические факторы.*

Abstract: *In the article, the socio-psychological factors that serve the formation of social imaginations in teenagers based on the works of Central Asian thinkers were determined, the connection between personality types and personality characteristics that ensure the formation of social imaginations in teenagers based on the works of Central Asian thinkers licency was considered.*

Key words: *socialization, phenomenon, thinker, work, socio-psychological factors.*

KIRISH

Har bir ijtimoiy tuzumda insonning ma'naviy yuksalishini ta'minlovchi ta'lim-tarbiya, ma'naviyat va ma'rifat kabi tushunchalar mavjud bo'lib, ular psixologiya, pedagogika sohasidagi o'zgarishlarni jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq holda o'rganishni talab etadi.

O'rta Osiyo mutafakkirlarining psixologik qarashlari qadim zamonlardan tortib, to hozirgi kungacha bo'lgan turli tarixiy davrlarda tarbiya, maktab va pedagogik-psixologik nazariyalarining taraqqiyotini davrlar talabi asosida o'rganib keldi. Har bir ijtimoiy tuzum, uning kelajagi, insoniyat istiqboli, kishilarning xayot va turmush darajasi fan va madaniyat taraqqiyoti bilan bevosita bog'liqlir.

Binobarin mustiqillik tufayli ko'xna Turkiston diyorida istiqomat qilib kelgan barcha xalqlar milliy qadriyatlarining qayti tiklanishi va rivojlanishiga shart-sharoitlar vujudga keldi. O'z tarixiga yangicha tafakkur asosida yondoshish, o'tmishdagi pedagogik tafakkur daholarining shuhratini tiklash, ularning g'oyalarini xalq xayotiga tatbiq etish kabi ulug' ishlar amalga oshirildi. Ayni paytda o'zbek va boshqa qardosh xalqlarning milliy



shakllanishi va rivojlanishini zamon talablariga mos keladigan ta'lim – tarbiya tizimisiz tasavvur qilish mumkin emas.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan xalqning ma'naviy kamoloti va ruhining darajasi bilan belgilanadi. Ma'naviyat va ma'rifatni yuksak darajaga ko'tarmasdan turib, ijtimoiy taraqqiyotga erishib bo'lmaydi. Ma'naviyatimizning eng muhim qirralaridan biri, milliy va tarixiy qadriyatlarimizga umumbashariy, umuminsoniy va umumislomiy boyliklarga tayanmog'imiz darkor.

Darhaqiqat, islomiy qadriyatlar, jumladan, tasavvuf ilmini chuqur, teran o'rganishimiz lozim, chunki ular ma'naviyatimizning tarkibiy qismi sifatida bizga – insoniyatga, xalqqa, jamoatga suyanch-tayanch va kuch-quvvat bo'lib xizmat qiladi.

Islomiy ma'naviy va ma'rifiy qadriyatlarga, jumladan, tasavvuf ilmiga nisbatan ahamiyatsizlik, dunyoviy ilmlar bilan bir qatorda diniy ilmlarni mukammal bilmaslik, islom ma'naviyatiga xos bo'lmagan salbiy oqibatlariga olib kelgan. Ayrim toifadagi odamlar islom madaniyatining ma'naviy-ma'rifiy mohiyatini va mazmunini teran va atroflicha bilmaganligi natijasida turli diniy-ekstremistik harakatlarga kirib qolishi mumkin. Diniy ilmsizlik orqasidan islom madaniyatiga munosabat yuzaki, ko'r-ko'rona bo'lib qolishi mumkin emas. Demak, bugungi vaziyat, hayotning o'zi ilohiy ilmlarni mukammal egallash, ajdodlarimiz merosini o'zlashtirish bilan birga dunyoviy ilmlarni o'rganmoqlikni taqozo etadi. Ushbu ijodiy merosni o'rganish tarixiy jihatdan ham, inson tarbiyasi jihatidan ham inson qalbi, uning ichki dunyosiga taalluqli bo'lgani uchun muhimdir.

ASOSIY QISM

Ulug' mutafakkirlar, olimu fuzalolar, aziz-avliyolar Vatani bo'lmish O'zbekistonimizda keyingi vaqtlarda xalqimizning ezgulikka yo'g'rilgan an'analari, urf-odatlarini qayta tiklash hamda rivojlantirish, muqaddas qadamjolar va obidalarni obodonlashtirish, yosh avlodni boy tariximizga hurmat, vatanparvarlik va odamiylik fazilatlarini ruhida voyaga yetkazishga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning "Biz ta'lim va tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o'zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz", – degan fikri, shuningdek, Fitratning "Xalqning aniq maqsad sari harakat qilishi, davlatmand bo'lishi, baxtli bo'lib izzat-hurmat topishi, jahongir bo'lishi yoki zaif bo'lib xorlikka tushishi, baxtsizlik yukini tortishi, e'tibordan qolib, o'zgalarga tobe va qul, asir bo'lishi ularning o'z otaonalaridan bolalikda olgan tarbiyalariga bog'liql", – degan fikrlariga davlatimiz rahbarining alohida urg'u berishi zimmamizda xalq manfaatlarini, farzandlar kelajagi, ularning tarbiyasiga oid mas'uliyat nechog'li yuqori ekanidan dalolatdir. Zero, farzandlar bizning kelajagimiz, ular otaona va ajdodlarimiz ishining davomchilari hisoblanadi. Yana Prezidentimiz e'tirof etganidek: "O'z milliy tarixi va madaniyatiga, dunyoda eng katta boylik bo'lgan intellektual va ma'naviy salohiyatga chuqur hurmat bilan yondashish, uni asrabavaylash va boyitish, shu asosda yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash jahondagi har bir davlat va jamiyat moddiy va ma'naviy taraqqiyotida, hech shubhasiz, hal qiluvchi o'rin egallaydi".

Abu Nasr Forobiy (873-950) riyoziyot, falakiyot, tabobat, musiqa, mantiq, falsafa, tilshunoslik va adabiyot sohalarida ijod etgan. U yoshligidan juda iste'dodli, zehni o'tkir,



xotirasi kuchli bo'lgan. Forobiy Eron va O'rta Osiyolik mutafakkirlar Nazzam, Ravandiy, Ar-Roziy; qadimgi yunon faylasuflari: Suqrot, Aristotel, Platon, Galiley ta'limotlarini chuqur o'rgangan. Beruniy, Ibn Sino va Firdavsiy mutafakkirlar singari oila, uy-joy orzusini ilm yo'lida qurbon qilib, butun umrini fanga bag'ishlagan. U 160 dan ortiq asar yozib, o'rta asr ilm-faniga ulkan hissa qo'shgan. Bu asarlar orasida "Arastuning metafizika asariga sharh", "Baxt-saodatga erishuv haqida", "Tirik mavjudot a'zolari haqida", "Fozil odamlar shahri" asarlari muhim ahamiyatga ega. Mutafakkirning ilm-fan oldidagi ulkan xizmatlaridan yana biri bu uning yunon olimlarining asarlarini sharhlaganligi va ularni yangi g'oyalar bilan boyitganligidir. Forobiy yunon falsafasini chuqur bilgani, unga sharhlar bitganligi va jahonga targ'ib qilgani hamda zamonasining ilmlarini puxta o'zlashtirib, fanlar rivojiga ulkan hissa qo'shgan uchun Sharqda Arastudan (Aristotel) dan keyingi yirik mutafakkir - harq Arastu "Muallim us-soniy" nomlari bilan shuhrat topgan.

Forobiy ilmlarni tasniflashda borliq xususiyatlarining tahlilidan va ularning fanda aks etishidan kelib chiqadi. Uning tasnifi, eng avvalo, tabiatni, tafakkur va fanda aks etishidan kelib chiqadi. Forobiyga ko'ra, ilmlarning tasnifidan maqsad haqiqatni o'rganish va tasdiqlashdan, uni yolg'ondan farqlashdan iborat. Olimning fikricha, fanlar va umuman bilimlar borliqdan kelib chiqib, borliqni uzoq vaqt o'rganish asosida to'planib boradi. Turli ilmlar bir-birini inkor qilmaydi, balki o'zaro bir-biri bilan bog'liq holda rivojlanadi. Ular dunyoni idrok qilishga va insonlarning baxt-saodatga erishishiga qaratilgandir.

"Ta'lim degan so'z insonga o'qitish, tushuntirish asosida nazariy bilim berish; ma'lum birhunarni egallash uchun zarur bo'lgan amaliy malakalar",-deydi olim. Forobiyning ta'limtarbiya haqidagi qarashlarida insonparvarlik g'oyalari alohida o'rin tutadi. Forobiyning ta'kidlashicha, tarbiyalanuvchi ixtiyoriy ravishda zaruriy, aqliy va axloqiy xislatlarni bilimli bo'lishga, to'g'rilik va haqiqatni sevishga, jasur, do'stlarga sadoqatli bo'lish singari fazilatlarini egallashga intilmog'i lozim. Abu Nasr Forobiy insonga xos hamda uning ma'naviy yuksalishida muhim ahamiyat kasb etuvchi tafakkur va nutqning rivojlanishini ta'lim- tarbiyaning asosini tashkil etuvchi muhim jarayon hisoblaydi. U insonni dunyotaraqqiyotining eng mukammal va eng yetuk yakuni deb biladi. Shunga ko'ra olim o'z asarlarida insonga tarbiya va ta'lim berish zarurligini aytadi va bunda ta'lim-tarbiya usullaridan kutilgan maqsad masalalari asosiy o'rinni egallashini qayd qiladi. Forobiy insonning ma'naviy hayotida, asosan, uning ikki tomoniga: aql-idrok ongiga va axloqiga e'tibor beradi. Shuning uchun ta'lim-tarbiya uning fikricha aqliy tomondan ham, axloqiy tomondan ham yetuk qilib yetishtirishga qaratilmog'i lozim. Ta'lim tarbiya jarayonida nazariy bilim bilan amaliy harakat, odatiy malaka, faoliyat birlashib boradi, yetuklik shu birlashuvning darajasiga qarab yuzaga keladi.

Forobiy tarbiya berish usullari haqida shunday yozadi: birinchi usul: qanoatbaxsh so'zlar, chorlovchi, ilhomlantiruvchi so'zlar yordamida odat hosil qilinadi va malakalar vujudga keltiriladi, odamdagi g'ayrat, kasbga intilish harakatga aylantiriladi. Ikkinchi usul: majbur etish yo'lidir. Bu usul majburiy ravishda tarbiyalanuvchilarni tarbiyalashdir. Forobiy o'z qarashlarida insonning aqliy va axloqiy jihatlariga alohida e'tiborini qaratadi va u "Fozil odamlar shahri" asarida o'n ikki tug'ma xislatni birlashtirgan kishigina axloqli inson bo'la olishini ta'kidlaydi. Bular quyidagilar: "Birinchi bunday odamning barcha a'zolari



mukammal taraqqiy etgan, sog'lom bo'lish lozim; ikkinchidan, tez fahm so'zlovchining maqsadini tez payqay oladigan bo'lsin; uchinchidan, xotirasi juda kuchli va mustahkam bo'lsin; to'rtinchidan, zehni tez va o'tkir bo'lsin; beshinchidan, nutqi ravon, fikri teran, mulohazalarini yorqin bayon eta olsin; oltinchidan, bilish va o'rganishga ishtiyoqi baland bo'lib, bilimlarini barchashni sezmasdan o'zlashtira olsin; yettinchidan, nafsini tiya oladigan, qimor o'yinlaridan jirkanadigan bo'lsin; sakkizinchidan haqiqatni sevadigan bo'lsin; to'qqizinchidan g'ururli va vijdonli bo'lsin, oliyanob ishlarga intilsin; o'ninchidan, moldunyo yig'ishga berilmasin; o'nbirinchidan, adolatli bo'lsin, odamlarni adolatga targ'ib etadigan bo'lsin; o'n ikkinchidan, adolatli bo'lsin, ammo qaysar bo'lmasin, adolat oldida qaysarlik qilib, o'zbilarmonlikka berilmasin, lekin har qanday adolatsizlik, pastkashlik oldida lafzli bo'lsin, o'zi zarur debbilgan narsasini amalga oshirishda qat'iylik ko'rsatsin, qo'rqmas, jasur bo'lsin, qo'rqish va ojizlikni bilmasin". Keyinchalik esa o'zgaradi, ya'ni ijtimoiylashuv jarayonida odamlar ming yillardn beri amal qilib kelayotgan qadriyatlar va me'yorlarni qabul qiladilar.

O'rta Osiyoda keng yoyilgan tasavvuf ilmida axloq, ta'lim-tarbiya va ma'rifatga oid qarashlar o'z ifodasini topgan edi. O'rta Osiyoda yashab ijod etgan Ibn Sino, Ahmad Yassaviy, Rabg'uziy, Nizomiy Ganjaviy, Alisher Navoiy, Yusuf Xos Hojib, Al-Xorazmiy kabi ulug' mutafakkir shoir, olimlar Hadisda aytilgan ibratli pand-nasihatlarni o'z asarlarida badiiy ifodalaganlar.

XULOSA

Olib borilgan ilmiy-nazariy tahlillar mavzu doirasidagi muammolarni, xususan, o'smirlar shakllanishini tadqiq qilinishiga bag'ishlangan ishlarning bugungi kunda yetarli emasligi va shu bilan birga dolzarbligini ko'rsatdi. Dunyodagi ko'plab ilg'or psixologiya namoyondalarini o'smirlar shakllanishining psixologik mexanizmlariga oid qarashlari tadqiq qilinganda, bu jarayon shaxs ijtimoiylashuvi va rivojlanishi uchun o'rganilishi muhim bo'lgan tadqiqot yo'nalishi ekanligi yana bir bor ta'kidlandi.

Ayni paytda, xorijda, Rossiyada hamda mamlakatimizda aynan ushbu muammo bo'yicha nazariy jihatdan olib borilgan tadqiqotlar tahlili quyidagi xulosalarni chiqarish imkonini berdi:

Umuman, o'smirlar shakllantirish mexanizmlariga nisbatan tarixda va bugungi kunda turli xil munozarali fikrlar mavjud bo'lib, bu qarashlar turli manbalarda Sharq va G'arb mutafakkirlari ijodida, ilg'or psixologiya vakillarining ilmiy asarlarida asrlar davomida sayqal topib kelgan, ammo ijtimoiy tasavvur muammosi psixologiyada o'zining muayyan nazariy–metodologik bazasiga ega bo'lsada, ushbu muammoga dahldor tadqiqotlar ko'lami hali o'zining mukammal yechimlariga ega bo'lmagan.

O'smirlar ijtimoiy tasavvurlarini o'rganishga qaratilgan ilmiy-nazariy manbalarni tadqiq etish, o'smirlar ijtimoiy tasavvurlariga xizmat qiluvchi mexanizmlar haqida batafsilroq mushohadalar yuritish imkonini beradi.

O'rganilgan ilmiy adabiyotlar tahlili, bugungi kunda muhim bo'lgan o'smirlar shakllantirish mexanizmlarini tadqiq qilish muqarrarligini ko'rsatdi. Buning uchun esa, eng avvalo, o'smirlardagi shaxs tiplari va shaxslilik xususiyatlari o'rtasidagi mutanosiblik va koorrelyatsion ko'rsatkichlarni tadqiq qilish talab qilinadi. Ayni paytda, tadqiq etilgan va



ilmiy matbuotda elon qilingan har bir ko'rsatkich ijtimoiy psixologiya fani istiqbollarini ochib berishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abu Nasr Farobiy. Fazilat, bax-saodat va kamolat haqida. Toshkent: Yozuvchi, 2001.-B.38.
2. Ачилдиев А.С. Проблема взаимодействия национального самосознания и национальной культуры: Автореф...канд.филос.наук. – Т., 1994. – С. 22.
3. Abdujabborova M.L. O'smirlar orasida olib boriladigan mafkuraviy profilaktika ishlarining ijtimoiy-pedagogik asoslari: – Pedagogika fanlari nomzodi. ... dis. avtoref. Toshkent: O'PFITI, 2007. – B.22.
4. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri.–T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993. – 224 b.
5. Abu Rayxon Beruniy. Hikmatlar. (To'plovchi A.Irisov).–T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1973. – 103 b.
6. Абдулина О.А. Общепедагогическая подготовка учителя в системе высшего педагогического образования.–М.: «Просвещение», 1990. – 141 с.
7. Avezov O.R. Turli ekstremal vaziyatlarda aholiga psixologik xizmat ko'rsatish amaliyoti. Psixologiya fani va yoshlarning rivojlanishi. //Xalqaro ilmiy–amaliy onlayn konferensiya materiallari// Toshkent, 2020 y. B. 77 -80.
8. Avezov O.R. Ta'lim- tarbiya jarayonida agressiv xulqli bolalar ota- onasi bilan ishlashning o'ziga xos psixologik jihatlari. “O'zbekistonda fuqarolik jamiyati qurish sharoitida shaxs ma'naviy madaniyatini shakllantirishning falsafiy omillari” //Respublika ilmiy–amaliy anjumani materiallari// Farg'ona, 2017 y. B. 248-251.
9. Avezov O.R. Mutaxassislikka kirish. Darslik,”Durdona” nashriyoti, 2021 yil. 243 bet.